

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

6-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>R.S.Shodiyeva</b>	
Ijod va aqliy taraqqiyot muammosining sharq mutafakkirlari asarlaridagi talqini .....	424
<b>M.G.Ismoilov</b>	
O'smirlarda familistik kompetensiyasini rivojlantirishning tamoyillari.....	429
<b>N.X.Raxmankulova</b>	
O'quvchilar tarbiyasini shakllantirishda ota-onalarga pedagogik bilim berish tizimining ahamiyati .....	433
<b>M.Saminjonov</b>	
Rasmiy-siyosiy qasamlar .....	439
<b>A.A.Hakimov</b>	
1358-1370 yillarda movarounnahrda kechgan hokimiyat uchun kurash jarayonlarining tarixiy manbalarda yoritilishi .....	444
<b>Sh.T.Abbosova</b>	
Yangi O'zbekiston taraqqiyoti bosqichida milliy g'oya barqarorlik kafolati .....	448
<b>A.A.Parmonov</b>	
Jismoniy madaniyat ta'limi sohasidagi mutaxassislar tayyorlash tizimini takomillashtirishda aksiologik yondashuv asosida akmeologik motivatsiyani rivojlantirishning o'rni va ahmiyati.....	451
<b>S.M.Abdullayev</b>	
Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarining kognitiv kompetentligini rivojlantirishning ijtimoiy- pedagogik ahmiyati .....	456
<b>S.M.Ro'zimurodov</b>	
Axloqiy-estetik qadriyatlarni shakllanishida oilaviy marosimlarning o'rni .....	460
<b>М.А.Мирзарахимов</b>	
Организация клиент-серверной технологической среды в образовании: анализ влияния и перспективы развития.....	464
<b>Z.H.Ubaydullayeva</b>	
Hissiyot ifodalovchi noverbal vositalarning lingvokulturologik tahlili .....	467
<b>J.Xamroqulov</b>	
Tyutorlar faoliyatini takomillashtirish asosida talabalarning ma'naviy-ahloqiy kompetentligi rivojlantirish.....	471
<b>N.O.Yunusaliyeva</b>	
O'quvchilarda ijtimoiy-axloqiy ideal haqidagi tasavvurlarini rivojlantirishning mazmun-mohiyati ..	475
<b>N.I.Suleymanova</b>	
Ijtimoiy fan darslarida abu ali ibn sino yozgan falsafiy qissalaridan foydalanishning tarbiyaviy ahmiyati .....	481
<b>Y.V.Lutfullina</b>	
Ta'lim jarayonida tarbiya usullarini to'g'ri tanlashning ahmiyati.....	486
<b>J.I.Xomidjonov, E.X.Bozorob</b>	
Tibbiyotda (klinikada) tovush yordamidagi usullar bilan tekshirishni "Swot-Tahlil" metod asosida o'qitish .....	490
<b>D.T.Tursunova</b>	
Ijtimoiy faoliik-talaba xotin-qizlar ijtimoiy ongini shakllantirishning ustuvor tamoyili va muhim omili sifatida .....	497
<b>S.A.Sharipova</b>	
Internet muloqoti yangi til hodisi sifatida .....	500
<b>К.И.Марайимова</b>	
Использование инновационных форм экскурсии в повышении социокультурной компетентности будущих учителей.....	506
<b>B.B.Djalalov, K.P.Uzakov</b>	
Ta'limming uzlusizligi mutaxassisning kasbiy kompetensiya darajasini oshirish omili sifatida .....	512
<b>M.K.Saliyeva, R.F.Talipov, O.E.Ziyadullayev, S.I.Tirkasheva, L.Q.Ablaqulov</b>	
Ayrim geteroatomli aldegidlarni InBr <sub>3</sub> /Et <sub>3</sub> n/Et <sub>2</sub> o katalitik sistemasida alkinillash jarayoni.....	519
<b>A.Sh.Raximov</b>	
Ichki yonuv dvigatellarining umumiyl tuzilishi hamda 2 va 4 taktli dvigatellar ishchi sikllari, moylash tizimini tuzilishi, hamda ishlashi.....	527

**TYUTORLAR FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH ASOSIDA TALABALARING  
MA'NAVIY-AXLOQIY KOMPETENTLIGI RIVOJLANTIRISH**

**РАЗВИТИЕ ДУХОВНО-НРАВСТВЕННОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ НА  
ОСНОВЕ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ТЮТОРОВ**

**DEVELOPMENT OF THE SPIRITUAL-MORAL COMPETENCE OF STUDENTS ON THE  
BASIS OF IMPROVING THE ACTIVITY OF TUTORS**

**Xamroqulov Jasur<sup>1</sup>**

<sup>1</sup>Farg'onan davlat universiteti, Talabalarni turar joy bilan ta'minlash ishlarini muvofiqlashtirish bo'limi bosh mutaxassis

**Annotatsiya**

*Mazkur maqolada talabalarning ma'naviy-ahloqiy kompetentligi bilimini rivojlanishga muammosining falsafiy-pedagogik adabiyotlarda o'r ganilishi yoritib berilgan, mualif tomonidan nazariy materiallarni tahlil etish asosida "ta'limgarbiya", talabalarning ma'naviy-ahloqiy kompetentligi tushunchalari mohiyatini ochib bergan.*

**Аннотация**

В данной статье освещено исследование проблемы развития знаний духовно-нравственной компетентности учащихся в философско-педагогической литературе, автором раскрыта сущность понятий «воспитание-воспитание», духовно-нравственная компетентность учащихся, на основе анализа теоретического материала.

**Abstract**

*This article highlights the study of the problem of developing knowledge of the spiritual and moral competence of students in the philosophical and pedagogical literature; the author reveals the essence of the concepts of "upbringing-upbringing", the spiritual and moral competence of students, based on an analysis of theoretical material.*

**Kalit so'zlar:** ma'naviy-ahloqiy kompetensiya, ta'limgarbiya, g'oya, mafkura, immunitet, mafkuraviy immunitet, intellektual yoshlar, intellektual salohiyat.

**Ключевые слова:** духовно-нравственная компетентность, образование, идея, идеология, иммунитет, идеологический иммунитет, интеллектуальная молодёжь, интеллектуальный потенциал.

**Key words:** spiritual and moral competence, education, idea, ideology, immunity, ideological immunity, intellectual youth, intellectual potential.

**KIRISH**

Oliy ta'limgarbiya muassasasi - bu OTMning auditoriya va auditoriyadan tashqari faoliyatida umummadaniy va kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish uchun ta'limgarbiya tashkilotining maxsus tarbiyaviy imkoniyatini maqsadga yo'naltirilgan holda ro'yobga chiqarilishidir. Mazkur jarayonning subyektlari ta'limgarbiya oluvchilar va o'qituvchilar bo'lib, mazmuni esa ularning kasbiy yo'naltirilgan faoliyatning umumiyligi turlaridagi (o'quv, auditoriyadan tashqari, nazariy, ilmiy-tadqiqot, ijtimoiy va boshqalar) hamkorligidir.

Ta'limgarbiya modernizatsiyasi zamonaviy nazariya va amaliyot asosida tarbiyaning yangi modellarini yaratish jarayonidir. Zamonaviy ta'limgarbiya qadriyat jihatidan yaxlit voqelik bo'lib, bu inson shaxsiga samarali ta'sir ko'rsatish natijalarida aks etadi. U madaniyatlarning uzatuvchisi bo'lib qolmay, uni shakllantirish mexanizmiga aylana boradi.

Qadriyatlar bu umumiy maqsadlar va ularga erishish vositalari bo'lib, bilimlar integratsiyasini ta'minlovchi fundamental me'yolar vazifasini bajaradi, bu esa, individga xayotda muxim ahamiyat kasb etadigan holatlarda o'zini tutishning maqbul shaklini tanlashga yordam beradi. Qadriyatlar - ta'limgarbiya ichki salohiyatining individual rivojlanishi hamda yangi sifatlar va qobiliyatlarning shakllanishi ko'rsatkichidir (inson faoliyatining ma'lum bir sohasida, xususan - kasbiy faoliyatda).

So'nggi yillarda ta'limgarbiya tizimi, shu jumladan, oliy ta'limgarbiya muassasalarida o'quv-tarbiya jarayonlarini tashkil etishning huquqiy asoslarini takomillashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining yangi taxrirdagi "Ta'limgarbiya"gi Qonunida ta'limgarbiya sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari sifatida ta'limgarbiya sohasida kamsitishlarga yo'il qo'yilmasligi, ta'limgarbiya doir teng imkoniyatlarning ta'minlanishi, ta'limgarbiya va tarbiyaning insonparvarlik, demokratik xususiyati kabilalar belgilab berilgan.

## ADABIYOTLARDA O'RGANILGANLIGI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 27-iyuldagagi PK-3151-sodan "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorida "Talaba-yoshlarning mafkuraviy immunitetini mustaxkamlash, ularda yuksak axloqiy sifatlarni tarbiyalash, ularning kasbiy kompetentligi bilan insoniy fazilatlarini uyg'unlashtirish, professor-o'qituvchilarning tarbiyaviy mas'uliyatini oshirish, ta'lif va tarbiya uyg'unligini amalda ta'minlash uchun fanlarning har bir mavzusidagi tarbiyaviy maqsaddan unumli foydalanilishini ta'minlash" kabi muhim vazifalar belgilab berildi.

O'zbekistan Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi PK-3775-sodan "Oliy ta'lif muassasalarida ta'lif sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli isloxtolgarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarorida mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli isloxtolgarda oliy ta'lif muassasalarining ishtiroki hamda tashabbuskorligini oshirish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etish, davlat va jamiyat hayotida yuz berayotgan o'zgarishlar hamda amalga oshirilayotgan tub islohotlarning mazmuni va mohiyati oliy ta'lif muassasalari tomonidan televideeniye va boshqa ommaviy axborot vositalari orqali keng aholi e'tiboriga yetkazilishini ta'minlash kabi muhim vazifalar belgilab berildi.

Bundan tashqari Sarvinoz Norboyevaning "Talabalarda ma'nnaviy kompetentlikni rivojlantirish nomli metodik qo'llanmasida, O.Mamatkulova va M.Xodjayevlarning "Talabalarda g'oyaviy-mafkuraviy kompetentlikni rivojlantirish muammosining falsafiy- pedagogik adabiyotlarda o'rganilishi" nomli qator ilmiy adabiyotlarda tyutorlar faoliyatini takomillashtirish asosida talabalarning ma'nnaviy-axloqiy kompetentligi rivojlantirishga alohida e'tibor berilgan.

Tyutorlar faoliyatini takomillashtirish talabalarning ma'nnaviy-axloqiy kompetentligi rivojlantirish omili sifatida, buniyodkor g'oyalarda gumanistik tendensiyalarning ifodasi, mafkuraning funksiyalari, O'zbekiston Respublikasi mustaqilligini mustahkamlashda milliy g'oya va mafkuraning roli, insoniyat tarixida g'oya va mafkuralar namoyon bo'lishining asosiy bosqichlari, axloq va mafkura, din va mafkura, san'at va mafkura mutanosibligi, g'oyaviy taxdidlarning yo'nalishlari mafkuraviy faoliyat, globallashuv sharoitida talaba-yoshlarda g'oyaviy mafkuraviy immunitetni rivojlantirish vazifalari, jamiyat barqarorligini ta'minlashning ijtimoiy-g'oyaviy asoslari, tafakkur o'zgarishi va ma'nnaviy-ma'rifiy yangilanishda milliy g'oyaning roli, milliy g'oyani rivojlantirishning institusional tizimi kabi mafkuraviy masalalar o'rganiladi.

Talabalarda ma'nnaviy-axloqiy kompetentlilikni rivojlantirishning nazariy bilimlari va amaliyotda qo'llay bilish holatiga nazar tashlar ekanmiz, ta'lif-tarbiya, immunitet va mafkuraviy immunitet tushunchalariga to'xtalib o'tish kerak. Ta'lif sohasida bo'layotgan har bir islohotlar jamiyatimiz ravnaqiga ijobjiy ta'sir qilishiga shubha yo'q. Mamlakatning intellektual salohiyatini oshirish - davlat ta'lif standarti talablariga javob bera oladigan, yetuk, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda muhim omil hisoblanadi.

Milliy taraqqiyotning yangi tarixiy davrida kelajak avlodning ma'anaviy qiyofasida aks etuvchi sifatlar, jismoniy, kasbiy, intellektual layoqatlilik, shuningdek, milliy, umuminsoniy xususiyatlar "ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot" barpo etish jarayonida asosiy shaxsiy ko'rsatkichlarni ifodalaydi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ma'ruza va nutqlarida jamiyatni pedagogizasiyalash sharoitida ma'nnaviy-axloqiy tarbiya jarayoniga kompleks yondashish lozimligi, ijtimoiy institutlar hamkorligini tizimli yo'iga qo'yish muhimligiga alohida e'tibor qaratdi, ya'ni: "O'zini jamiyatimiz, yoshlarimiz ma'nnaviyati, g'oyaviy-mafkuraviy tarbiyasi uchun mas'ul deb bilgan insonlar – bu mahalla yoki diniy tashkilotlar bo'ladimi, huquq-tartibot idoralari xodimlari yoki katta ta'sir kuchiga ega ijodkor ziyolilar bo'ladimi – ularning barchasi ayniqsa faol bo'lishlari lozim". Bugungi kunda mamlakatimizda yoshlar tarbiyasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan ekan, buning negizida kelajagimiz buniyodkorlari bo'lgan yoshlarni har tamonlama bilimli intellektual salohiyatga ega, mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va ma'nnaviy sohalardagi islohotlarga daxldorlik hissi bilan yashaydigan barkamol shaxs qilib tarbiyalash maqsad qilib qo'yilgan.

Intellektual yoshlar – Vatanimiz kelajagi atamasiga izoh berilganda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarga o'zining ilmi, bilimi, aqli va idroki bilan qonunlarimizga hurmat ruhida

tarbiya ko'rgan, jamiyatimizdagi olib borilayotgan islohotlarga befarq bo'lmasdan tashabbuskor g'oyalari bilan jamiyat taraqqiyotiga ta'sir etuvchi yoshlar nazarda tutiladi.

Intellektual yoshlar mamlakatimizning milliy mafkurasida aks etgan tamoyillarning mazmun – mohiyatini ham chuqur anglagan holda yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq farovonligi, komil inson, millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglik, ijtimoiy hamkorlik g'oyalarining mazmun-mohiyatini to'laqonli tushunishi lozim. Zero, o'z davrida ulug' alloma Abu Nasr Forobiya ta'kidlaganidek: "Insonning mohiyati haqiqiy baxt-saodatga erishuv ekan, inson bu maqsadni o'zining oliy g'oyasi va istagiga aylantirib, bu yo'lda barcha imkoniyatlardan foydalansa, u baxt-saodatga erishadi".

### TADQIQOT NATIJALARI

Talabalarning ma'naviy-ahloqiy kompetentligi ahamiyatga molik ehtiyojlarni shakllantiradi. Unafaqat xulq-atvor me'yorlari to'g'risida bilimlarni egallab, rag'batlanish yoki jazodan qutilib qolish uchun ularga amal qilishni, balki ularni xatti-harakatlarning ichki me'yorlariga aylantirish va ularga ongli amal qilishini ta'minlashi kerak.

So'nggi vaqtarda pedagogik-psixologik tadqiqotlarda kommunikativ kompetentlik tushunchasi ko'p uchraydi. Ye.V.Kalyaginaning fikricha, ijtimoiy kompetentlikning o'ziga xos tushunchasi sifatida "kommunikativ kompetentlik" quyidagi komponentlarni o'z ichiga oladi; emotsional - hissiy ziyraklik, empatiya, boshqalarni tushunish, hamandardlik va rahmdillikka qobiliyatlilik, tengdoshlarining qayg'usi va harakatlariga e'tiborli bo'lish; kognitiv - boshqa kishini anglay olish, boshqa insonning o'rniqiga o'zini qo'ya olish, kishilar o'rtasidagi turli muammolarni samarali hal etish qobiliyat; hulq-atvor hamkorlik, birgalikdagi samarali faoliyat, tashabbuskorlik, muloqotga adekvatlik, tashkilotchilik qobiliyatları.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2017-yil 6-apreldagi "Umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-xunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 187-sون Qarori bilan o'quvchilarining quyidagi tayanch kompetensiyalarga ega bo'lishlari belgilab berilgan: kommunikativ; axborot bilan ishlash; shaxs sifatida o'zini-o'zi rivojlantirish; ijtimoiy faol fuqarolik; umummadaniy kompetensiya; matematik savodxonlik.

Umuman olganda, kompetensiya va kompetentlikning xilma-xil turlarini davom ettirish mumkin. Ya'ni ayrim kompetentliklar qator boshqa kompetensiyalarga bo'linadi yoki ular subkompetentlik deb nomlanadi. Kompetensiyaviy yondashuvni har tomonlama tahlil qilish shuni ko'rsatadi, kompetentlikni tasniflash uchun asos sifatida inson faoliyati sohasi xizmat qiladi. Qaysiki, inson ma'lum bir soxada kompetent bulishi mumkin, bir paytning o'zida barcha sohalarda kompetent bo'lishi mumkin emas. Kompetentlik shunchaki, bilimlar emas, ularning chuqur o'zlashtirganligi, ko'nikmalarning o'zi emas, ularni rivojlantirishga ongli intilish, shuningdek, malakalarga ega bo'lish emas, nostonart vaziyatlarda ularni qo'llay olish qobiliyatini, yanada aniqroq qilib aytganda, bilim, ko'nikma va malakalarni hayotiy faoliyat jarayonida ijodiy qo'llay olishni talab etadi. Bizning fikrimizcha, umumiy kompetentlik.

-shaxsiy integrativ sifat tarzida namoyon bo'ladi hamda o'zining tuzilmasida bir-birini to'ldiradigan insonning muvaffaqiyatli hayotiy faoliyatni amalga oshirish qobiliyatini ta'minlaydigan subkompetentlikni qamrab oladi.

Ma'naviy kompetentlikning kompetensiyaviy yondashuv tizimidagi o'rinni aniqlash maqsadida o'tkazilgan ilmiy adabiyotlar tahlili quyidagi jihatlarni ajratib kursatish imkonini berdi:

-bir tomondan, ma'naviy kompetentlik ijtimoiy subkompetentlikni ifoda etishi mumkin. Bu esa, negizida ahloqiy me'yorlarga doir bilim, ahloqiy tanlovni asoslay olish ko'nikmasi hamda ularni amalga oshirish qobiliyatini yotadigan shaxsnинг qadriyatli yo'nalgaligisiz zamonaviy voqeliklarni anglash va ijtimoiy me'yorlarni o'zlashtirish mumkin emasligini ko'rsatadi;

-boshqa tomondan, olamni insonparvarlik nuqtai nazaridan ko'ra olish, ma'naviy-ahloqiy qadriyatlar, dunyo bilan uzaro uyg'un munosabatlarga kirishish, qadriyat va me'yorlarning turli tizimlari ichki birligini anglash uchun insonning o'z ma'naviy olamini rivojlantirishi va amalga oshirishi kabi o'ziga hos belgilarga ega qadriyatli-dunyoqarashga doir subkompetentlik sifatida talqin kilish mumkin.

Shuningdek, shaxs ijtimoiylashuvi nuqtai nazaridan, biz ma'naviy kompetentlik ijtimoiylik bilan ham bevosita bog'lik, deb hisoblaymiz. Chunki keng ijtimoiy-psixologik ma'noda inson ko'plab me'yoriy tizimlar bilan bog'lik ekan, ma'naviyat ijtimoiy nazorat shakli sifatida xizmat qiladi.

Yuqoridaagi fikrlardan kelib chikib aytish mumkinki, mazmunan ma'naviy kompetentlik madaniy hodisa sifatida integrativ tavsifga ega bo'lib, umuminsoniy qadriyatlar va zamonaviy

sharoitda muhim hisoblangan ahloqiy me'yorlarni o'zlashtirishning muayyan darajasini o'zida aks ettiradi.

Ma'naviy kompetentlik shaxs integrativ xususiyati sifatida o'zida ma'naviy bilimdonlik, ma'naviy qadriyatlar tizimida o'z o'rnni aniqlash imkoniyati va hayotiy vaziyatlarning keng ko'lamida ma'naviy yetuklikni namoyon kilish qobiliyatini birlashtiradi. Mazkur kompetentlikning asosiy funksiyalariga quyidagilar kiradi: aksiologik, yo'naltiruvchi va boshqaruvga doir.

### XULOSA

Ma'naviy kompetentlikni rivojlantirish tuzilmasi maqsadga muvofiq ravishda quyidagi komponentlarni o'z ichiga oladi: tanishtiruv- tahliliy, qadriyatli- yo'naltiruvchi, refleksiv-faoliyatga doir. Mazkur komponentlar ma'naviy kompetentlikning ijtimoiy tavsifini ham o'zida aks ettiradi: ma'naviy mazmunga ega axborot umuminsoniy qadriyatlar nuqtai nazaridan tahvil etilishi va baxolanishi, shaxsiy-ma'naviy qadriyatlar bilan ijodiy jihatdan muvofiq bo'lishi, boshqa kishilarni tushunish uchun qulay shaklda ifodalanishi, ma'naviy qadriyatlarning turli variantlarini hisobga olish uchun asoslangan dalillar asosida ishlab chikilishi, ahlokiy refleksiya va keng hayotiy vaziyatlar doirasida tog'ri harakatlanishni amalga oshirishi uchun zarurdir. O'z navbatida, ushbu komponentlar talabalarda ma'naviy kompetentlikni rivojlanganligini o'rganish ko'rsatkichlari sifatida ham xizmat qiladi.

Shuningdek, ma'naviy kompetentlik ijtimoiy-kasbiy kompetentlikning quyidagi jihatlarini ham o'zida aks ettiradi: kasbiy faoliyatga qadriyatli munosabat, mazkur faoliyatning shaxsiy ma'naviy mohiyatining anglanganligi, kasbiy muloqotning insonparvar yo'nalganligi va boshqalar.

Ma'naviy kompetentlikni rivojlantirish jarayoni uchta o'zaro bir- biri bilan bog'lik bosqichlarni amalga oshirishni talab etadi: ma'naviy sohaga doir bilimlarni kengaytirish; ma'naviy qadriyatlarga yo'nalganlik; shaxsiy ma'naviy qadriyatlar asosida faoliyatni tashkil etish va boshqarish. Mazkur paragraf bo'yicha ishlab chiqilgan xulosalar pedagogik-psixologik tahlil predmeti sifatida ma'naviy kompetentlikni o'rganish natijalarini aks ettiradi hamda tajriba-sinov ishlarini tashkil etish jarayonida ma'naviy kompetentlikni rivojlantirish mazmuni, shakl va metodlarini tanlash uchun zaruriy shart-sharoitni yaratadi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 27-iyuldag'i "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirotini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'grisida"gi PK-3151-soni Qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli isloxoatlarda faol ishtirotini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'grisida"gi 3775-soni Karori. // Qonun xujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 06.06.2018 y., 07/18/3775/1313-soni.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2017-yil 6-apreldagi "Umumiyo'rta, o'rta maxsus, kasb-xunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'grisida"gi 187-soni Qarori. / O'zbekiston Respublikasi qonun xujjatlari to'plami, 2017 y., 14-soni, 230-modda.
4. Sarvinor Norboeva. Talabalarda ma'naviy kompetentlikni rivojlantirish (metodik qo'llanma).
5. Mamatqulova, O., & Xodjayev, M. (2023). Talabalarda g'oyaviy- mafkuraviy kompetentlikni rivojlantirish muammosining falsafiy-pedagogik adabiyotlarda o'rganilishi. Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире, 1(3), 315–320. <https://doi.org/10.47689/STARS.university-pp315-320>